

UDK:37.013.42(575.1)

SO’FI OLLOYOR MA’NAVIY MEROSI TRANSFORMATIV TA’LIM NUQTAI NAZARIDAN

G’ulomova Nazira Rustamjon qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası tayanch doktoranti

Tel : + 998 94 259 90 96

Email: gulomovanazira424@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21205661>

Annotatsiya: Globallashtgan ta’lim tizimi nafaqat talabalarga akademik bilim berish, shu qatorda shaxsning dunyoqarashini shakllantirish, hayotiy tamoyillarini belgilash hamda qadriyatlarni hurmat qilishga undaydi. Mazkur maqolada So’fi Olloyor ilmiy-ma’naviy merosining bugungi davr yondashuvlari asosida transformatsiyaviy pedagogik qarashlari tahlil qilinadi. Shu nuqtai nazardan transformativ ta’limning tamoyillari So’fi Olloyor asarlari bilan birga uyg’unlashtiriladi. Asarlarda ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy g’oyalar tanqidiy-reflektiv tafakkurni rivojlantirish, shaxsning ichki dunyosini o’zgartirish hamda barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Transformativ ta’lim, So’fi Olloyor, ilmiy-ma’naviy meros.

Аннотация: Глобализированная система образования ориентирована не только на передачу учащимся академических знаний, но и на формирование мировоззрения, определение жизненных принципов и воспитание уважения к ценностям. В данной статье с позиций современных подходов анализируются трансформационные педагогические идеи, содержащиеся в научном и духовном наследии Суфи Оллоёра. В этом контексте принципы трансформативного образования сопоставляются с трудами Суфи Оллоёра. Духовно-нравственные идеи, представленные в его произведениях, способствуют развитию критического и рефлексивного мышления, преобразению внутреннего мира человека и формированию гармоничной личности.

Ключевые слова: Трансформативное образование, Суфи Оллоёр, научное и духовное наследие.

Abstract: The globalized education system encourages not only the provision of academic knowledge to students, but also the formation of a person’s worldview, determination of life principles, and respect for values. This article analyzes the transformational pedagogical views of the scientific and spiritual heritage of Sufi Olloyor based on contemporary approaches. From this perspective, the principles of transformative education are harmonized with the works of Sufi Olloyor. The spiritual and moral ideas put forward in the works serve to develop critical and reflective thinking, change the inner world of a person, and form a harmonious personality.

Keywords: Transformative education, Sufi Olloyor, scientific and spiritual heritage.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimi mehnat bozoriga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash bilan birga milliy va ma’naviy qadriyatlarni o’zida singdirgan barkamol shaxsni shakllantiradi. Aynan bu yondashuv har bir bo’lg’usi mutaxassisning tanqidiy-reflektiv tafakkurini oshirishga hamda noqulay vaziyatlarda o’zini to’g’ri isloh qilishga

undaydi. Boisi, raqamlashgan texnologiyalar asri davrida shaxsning axloqiy barqarorligi va ma’naviy immuniteti uning jamiyatdagi pozitsiyasini belgilab beradi. Aynan bu kabi jarayonlarda So’fi Olloyor ilmiy-ma’naviy merosiga murojaat qilish transformativ yondashuvlarni keltirib chiqaradi. Bu kabi yondashuvlar asosidagi jarayonlar informativ ta’limdan transformativ ta’lim tomon yo’naltiriladi. Ma’lumki, **“transformatsiya”** tushunchasi (lot. transformatio — qayta o’zgarish, qayta hosil bo’lish) kabi ma’nolarni anglatadi. Xalqaro pedagogikada bu tushuncha amerikalik sotsiolog Jek Mezirowning “Transformativ ta’lim nazariyasi” bilan bog’liq. Uning ta’kidlashicha, “transformativ ta’lim-bu insonning o’z psixologik va madaniy taxminlari dunyoni idrok etish usulini qanday va nima sababdan cheklab qo’ygani tanqidiy anglash jarayoni, shuningdek, ushbu taxminlar tizimini tajribalarni yanada kengroq, adolatliroq va tanqidiyroq integratsiya qilish imkonini beradigan tarzda qayta qurish hamda yangi tushunchalar asosida harakat qilish jarayonidir”. Aynan bu jarayon u tomonidan ishlab chiqilgan **“premise refleksiya”** si bilan bog’liqlikni kasb etadi va “nega?” savolini markaziy o’ringa qo’yadi. Chunki ta’lim oluvchi o’zini va vaziyatni isloh qilish uchun fundamental qarashlarini “nega?” degan so’roq ostiga olsagina, haqiqiy transformatsiya holati yuz beradi. E’tiborli jihati shundaki, Jek Mezirow tomonidan yaratilgan bu model sharq mutafakkiri va tasavvufiy tarbiya nomoyondasi bo’lgan So’fi Olloyorning “Sabotul ojizin” asaridagi didaktik tizim bilan to’laligicha mos keladi. Chunki mutafakkir o’z asarlarida iymon va nafs tushunchalarini markazga qo’yadi.

***Amaling nafi ham iymon bilandur,
Qachon yolg’uz amal qilg’on bilandur.
Nauvzu billax, iymonsiz kishini
Qabul etmas Xudoyim hech ishini.***

Ya’ni: ***“Ish iymon bilan amalga oshsagina solih amalga aylanadi. Iymonsiz bajarilgan amaldan qachon manfaat yetgan? Bunday holga tushib qolishdan ollohning o’zi asrasin. Iymonsiz kishining hech bir ishini Xudoyim maqbul etmas” - deya izohlanadi.***

Yuqorida asos qilib olingan baytdagi iymon va nafs tushunchalarining sotsiolog Jek Mozirow tomonidan bog’liqligi ma’naviy uyg’unlikdadir.

Ya’ni, g’arb satsiologisti inson shaxsiy pozitsiyasini ijtimoiy jamiyatda o’rin topishiga psixologik tomonidan yondashgan bo’lsa sharq faylasufi bu jarayonni ma’naviy axloqiy tushunchalar orqali jamiyat azolariga yetkazadi. Ikkisida ham ko’zlangan maqsad: ma’naviy-axloqiy hamda barkamol avlod tarbiyasidagi bo’shliqlarni to’ldirish hamda ma’naviy immunitetni mustahkamlashdan iborat.

So’fi Olloyor qalamiga tegishli asarlardagi ma’naviy yondashuvni Jek Mozirow tomonidan yaratilgan premise refleksiya orqali uch yo’nalishda bosqichma-bosqich integratsiyalash mumkin. Masalan:

1. Mazmuniy refleksiya (Content reflection)

Mazmuniy refleksiya talaba yuqorida keltirib o’tilgan baytdagi matnni o’qiydi hamda o’z tanqidiy tafakkurini oshirish uchun quyodagi savollarni o’z oldiga qo’yadi.

Baytda nima haqida so’z bormoqda?

Iymon va nafs o’tirasidagi bo’liqlik nimada?

Nega amal iymonsiz qabul bo’lmaydi?

Premise refleksiyaning birinchi bosqichida talaba o’ziga berilgan savollar orqali bayt mazmunini anglaydi va bilim hosil qiladi.

2. Jarayonli refleksiya (Process reflection)

Refleksiyaning ikkinchi bosqichida talaba shu vaqtga olgan bilimlarini hayot bilan bog'laydi.

Men qilayotgan ishlarimning maqsadi nima?

Hayotimda iymon va amal uyg'unligini ta'minlay oloyapmanmi?

Bu bosqichda talaba o'z faoliyatini tahlil qiladi. O'zini o'zi baholaydi.

3. Asosiy qarashlarni reflektiv tahlil qilish (**Premise Reflection**)

Bu Mezirow nazariyasining eng yuqori bosqichidir. Bu bosqichda inson o'z e'tiqodlari va dunyoqarashining asoslarini qayta ko'rib chiqadi.

Bu yerda talaba quyidagi savollarni beradi:

- Nega men ilm olmoqdaman?
- Nega men pedagog bo'lishni xohlayman?
- Mening hayotiy qadriyatlarim nimaga asoslangan?
- Men uchun muvaffaqiyat nima?
- Men qilayotgan ishlarimning asl maqsadi nima?

Bu savollar insonning dunyoqarashini o'zgartiradi.

Aynan yuqorida keltirilgan reflektiv jarayonlar So'fi Olloyor tasavvufiy asalarida **“muhosaba”** deb aytiladi. Muhosaba (arabcha: muhasaba — hisob-kitob qilish, o'zini tekshirish) — islom axloqi va tasavvufda insonning har kunlik qilgan amallari, so'zlari va niyatlarini tahlil qilishi, ya'ni o'z-o'ziga qattiq hisob berishi jarayonidir. Bu tushuncha nafsni poklash va komillikka erishishning eng muhim vositasi sanaladi. Pedagogik nuqtai nazaridan muhosaba zamonaviy transformatsion jarayon reflektiv tafakkurining tarixiy shakli sifatida qarash mumkin.

So'fi Olloyorning asarlarida ilgari surilgan iymon, amal, nafs va muhosaba haqidagi qarashlar Jek Mezirowning **content reflection, process reflection va premise reflection** bosqichlari bilan mazmunan uyg'unlashadi. Ayniqsa, tasavvufdagi muhosaba amaliyoti premise refleksiyaning ma'naviy-pedagogik ekvivalenti sifatida namoyon bo'lib, shaxsning ichki dunyosini transformatsiya qilishga xizmat qiladi. Shu bois muallif asarlari (Sabotul ojizin) transformativ ta'lim nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin bo'lgan muhim pedagogik manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T-harfi. Davlat ilmiy nashriyoti-Toshkent-2000. 634-bet
2. Ted Fleming. “Mezirow and the Theory of Transformative Learning”, Columbia University, USA. 18-october 2025. CHAPTER 9 120-p.
3. SO'FI OLLOYOR. “Sabotul Ojizin” sharhi “Ravoyihur rayhon”. Sharxlovchi Roshid Zohid. Toshkent- “Matbaachi” nashriyoti 2024. 61-b.
4. Imom G'azzoliy. Muroqaba va Muhosaba. Iqro nashr-2025. Nashrga tayyorlovchi: R. Yandashov, N. Xudoynazarova.